



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ  
ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ  
КАДРЛАР  
ТАЙЁРЛАШНИНГ  
ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”  
мавзусидаги илмий-амалий  
анжуман материаллари**

**БУХОРО - 2016**

2. Мамлакатни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш улуғвор максадларимиздир. Президент Ислон Каримовнинг Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг Қўшма мажлисидаги маърузаси. "Халқ сўзи". 2010 й 28 январь, - Б. 1-3.
3. Маънавий юксалиш йўлида. Тошкент. Маънавият, 2008.

## O'ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHGA KATTA E'TIBOR BERILMOQDA

D.S.Niyozov, M. Xadjayeva, N. Tosheva

*BuxDU o'qituvchilari*

**T.S.Kanatbayeva**

*NavDPI o'qituvchilari*

Baliq inson organizmi uchun protein, mikroelementlar, vitaminlar va boshqa oziq moddalarining zaruriy manbasi hisoblanadi. Baliq qimmatbaho oзуqа mahsuloti hisoblanadi. Oзуqаga boy mahsulot. U baliqchilik sanoatining xomashyo manbasi "A" va "D" hamda baliq uni olinadi.

Amaliy jihatdan inson salomatligini baliq va baliq mahsulotisiz tassovur qilish qiyin. Xalqaro inson salomatligini saqlash tashkilotining xulosasi bo'yicha inson salomatligining 55% turmush tarzidan, eng avvalo ratsional oziqlanishdan, 25% ekologik omillardan va 8-12% tibbiy xizmatdan iborat. Bu ma'lumotlarning asosida to'la qimmatli oziq mahsulotlarini iste'mol qilishdan iborat rivojlangan mamlakatlarda aholining kunlik ratsionida hayvon mahsuloti (go'sht, parranda va dengiz mahsulotlari), oqsil va vitaminlarga boy bo'lgan balanslashgan oziq moddalar ustunlik qiladi. Baliq oqsili – ixtulin, kollogendan iborat bo'lib, to'la qimmatli aminokislotalarga ega. Shu sababli baliq va baliq mahsulotlarini iste'mol qilganda odamda ortiqcha og'irlik hosil bo'lmaydi. Olimlarning maslahatiga ko'ra, baliqni dori-darmon sifatida iste'mol qilish, insultdan, infarktdan va qon bosimi oshishidan saqlash uchun tavsiya qiladilar.

Ratsional ovqatlanish uchun inson oqsil, yog', uglevod, vitamin va mikroelementlarni (fosfor, kalsiy, temir, yod) qabul qilishi shart. Yuqorida normalari bayon qilingan moddalar va elementlar baliq va baliq mahsulotlarida mavjud. Baliq va baliq mahsuloti tarkibida kaltsiy – 40-140%, magniy – 26-38%, fosfor – 220-290% ni tashkil etadi. Inson to'la qimmatli oziqlanishda baliq biologik ahamiyati jihatdan tuxum va sutdan keyin 3-o'rinda turadi. Ayniqsa, bolalar, o'smirlar va yoshi kattalarning salomatliklari uchun baliq nihoyatda ahamiyatlidir. Turli yoshdagi insonlar uchun baliq iste'mol qilishning minimal sutkalik normasi Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan (2008) quyidagicha belgilangan:

3-7 yosh – 40 g/sutka.

7-11 yosh – 50 g/sutka

11-14 yosh – 55 g/sutka

15 – 18 yosh – 50 g/sutka

20-60 yosh – 40 g/sutka

60-75 yosh – 50 g/sutka

Prezidentimiz tomonidan 2016 yil "Sog'lom ona va bola" yili deb e'lon qilindi. Shuning uchun ham baliq va baliq mahsulotini oзуqа ratsioniga kiritish ona va bola salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Homilador ayollar uchun 60 g/sutka, ko'krak yoshdagi bolali ayollar uchun 68-78 g/sutka, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun 60-70 g/sutkada baliq iste'mol qilishlari lozim, chunki baliq miya faoliyatini yaxshilaydi, ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi, bolalar bo'yini o'sishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Iloji boricha tirik baliqni iste'mol qilgan ma'qul. Baliq sifatiga baho berganda undagi qitqning bor yoki yo'qligi hisobga olinadi. Agar qiltig'i bo'lmasa (oksla, ilonbosh, laqqa, farel, lasos, asyotr) kabilar yuqori sifatli baliqdir. Agar serqiltiq bo'lsa (oq do'ngpeshana, karp, lesh, vobla, oq amur) unda past sifatli baliq hisoblanadi. Lekin baliqning yaxshi yoki yomoni bo'lmaydi, uning barchasi "luqmai halol" deyiladi. Toza baliq bozorda 100 ball bilan, muzlatilgan baliq 50 ball bilan, tuzlangan va dudlangan baliq 20 ball bilan qimmat baholanadi. Shu sababli tirik baliq insonning fiziologik talabini to'liq qondiradi. Insonning



baliqqa bo'lgan talabini qondirish Shimoliy Amerikada 25-45 kg/odam/yil ni tashkil etadi. Jahon miqyosida 2006 yilda o'rtacha baliq iste'mol qilish 16,6 kg/odam/yil ni tashkil qilgan. Afsuski bu ko'rsatkich O'zbekistonda 0,5 kg/odam/yil ni ko'rsatmoqda. O'zbekiston bozorining baliqqa bo'lgan talabi hozirgi kunda 300 ming tonnani tashkil etmoqda. Respublika tabiiy suvliklaridan 3-5 ming tonna baliq ovlanadi. Bu aholi talabiga nisbatan 100 baravar kam. Hozirgi kunda tabiiy suvliklardan 10-15 ming / tonna yiliga baliq mahsuldorligini yetkazish amri mahol. O'tgan asrning 60-70 yillarida Orol dengizidan 25-30 ming tonna yiliga baliq ovlangan. Hozirda baliq ovlanadigan dengiz yo'q. Tekisliklarga chiqib ketadigan 4 ta daryo bor, ular ham irrigatsiya sistemasini uchun xizmat qiladi. Irrigatsiya va melioratsiya faoliyati natijasida tashlandiq suvliklar hosil bo'lgan. Ulardagi baliq turlari 80 taga yaqindir. Shulardan 10 – 15 turi ovlanadigan baliqdir. Mahsuldorligi 6-8 kg ni tashkil etadi. Buxoro viloyatida esa bu ko'rsatkich 1,5 – 2,0 kg ni tashkil etadi. Aholini baliq va baliq mahsuloti bilan ta'minlash masalasini hal qilishda ichki suvlardan ilmiy asoslangan baliqchilikni yo'lga qo'yishdan iborat.

O'zbekiston hududida 10 ming/ga akvakultura baliqchilik havzalari mavjud bo'lib, mahsuldorlik 0,9 – 2,0 tonna/ga yoki 200 g/m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi. Asosan oq do'ngpeshona, chipor do'ngpeshona, kari, oq amur yetishtiriladi. Bu tur baliqlari jahon bozorida eng arzon baliqlar turiga kiradi.

Jahon amaliyotida ( Isroil, Yaqin Sharq, Hindu Xitoy) akvakultura sharoitida 50-200 kg/m<sup>2</sup> baliq mahsuloti olinmoqda. Agar O'zbekiston sharoitida baliq mahsuldorligini 40 kg/m<sup>3</sup> ga yetkazilsa, 200 ming tonna baliq mahsuloti olish uchun bor-yo'g'i 500 gektar suvlik yetarli. Birgina Buxoro viloyatida 101 ga tabiiy suvliklar mavjud. Bunday sistemani O'zbekiston sharoitida tashkil qilish masalasi Butun jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining e'tiboriga olingan (TAO/FAO OON loyihasi GSR/UZB/3103). Bu masalani hal qilish uchun yerda kavlangan baliq o'stirish hovuzlari, sadokda va basseynida baliq boqishni yo'lga qo'yish orqali hal qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13 avgustda 350- qaror qabul qilindi. Qarorda Respublikada baliqchilikni rivojlantirish maqsadida mutaxassis kadrlar – gidrobiolog, ixtiolog, va baliqshunos kabi oliy ma'lumotlilarni tayyorlash shakllantirildi. Shu munosabat bilan yilda 2006 O'z MU TI huzurida ixtiologiya va gidrobiologiya bakalavriati va magistratura tashkil qilindi.

BuxDU huzurida ixtiologiya va gidrobiologiya mutaxassisligiga oid magistratura 2013 yildan boshlab faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu mutaxassis kadrlar kelgusida viloyatda baliqchilik va akvakulturani rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shadilar degan umiddamiz.

## **MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA YANGI AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O'RNINI**

**N. B. Qurbonova**

*Buxoro sanoat kasb – hunar kolleji katta o'qituvchisi*

Oliy va o'rta maxsus ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim-tarbiya usullarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga, o'qitish texnologiyalarini takomillashishiga, olib keladi. Bunday vaziyat ta'lim jarayonini axborotlashtirishni tashkil etuvchi va boshqaruvchilar oldida bir qator vazifalarni bajarilishini talab qiladi. Masalan, birinchidan, o'quv materiallarni tashkil etuvchi jamoa tarkibiga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini va ular o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishi lozim. Ikkinchidan, ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va mazkur faoliyatning samaradorligini oshirishni bevosita boshqarish ham kerak. Uchinchidan, o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish bilan bog'liq murakkab jarayonni yengillashuvini hamda pedagogning maxsus malakalarini shakllanishini ta'minlash zarur.

Bunday vazifalarni bajarish esa quyidagi dars o'tkazish tartiblariga e'tibor berish lozim:

## MUNDARIJA

А.А. Тулаганов. Илм-фан – тараккиётнинг харакатлантирувчи кучи	5
А.А. Тулаганов Сила, движущая научный прогресс	7
А.А. Tulaganov. Science as a driving force of progress	10

### 1-ШЎБА

#### ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

А.А. Тулаганов. Талабалар билим сифатини оширишнинг муҳим омиллари.....	14
С.Қ.Қахҳоров. Зиё таратаётган олий даргоҳ	16
Ш.А. Ҳайитов Бухорода педагогик ходимлар тайёрлашнинг тарихий тажрибасидан (хх асрнинг 20-йиллари)	22
Г.Х.Карлыбаева. Ўзбекистон олий таълим муассасаларида инновацион хамкорликни кучайтиришда Европа иттифоқи дастурларининг хиссаси	24
Риккардо Манара.Итальянская система высшего образования	28
О.С.Сафаров, Ш.Н.Ахмедова Бухорода адабиётшунослик равнақи (1930-2015)	32
D.N. Yo'ldosheva Yuqori malakali kadrlar tayyorlash va o' rta maxsus ta' lim tizimida ona tili ta' limi masalasi	38
Ҳ.Р.Ҳамроев Бухорода туризм соҳасида кадрлар тайёрлашни янада такомиллаштириш йўллари	40
А. Шарипов. Юқори малакали кадрлар илмий – педагогик фаолиятида инновация ва новацияларнинг ўрни	43
И.З. Абдуллаев Юқори малакали кадрларни тайёрлашда маънавий ва ахлоқий тарбиянинг долзарб масалалари	45
Э.У. Қосимов Ёшлар тарбиясига илмий асосда ёндошайлик	47
А.А.Илёсов, М.Н. Нурова Касб-хунар коллежларида мутахассис кадрлар тайёрлашда таълим интеграциясининг ўрни	50
Г.Д.Ниёзова Баркамол шахсни тарбиялашда таълимни тарбия билан узвий боғлиқлиги	52
А.И. Саидов, Д. Сулайманова Педагогика коллежи ўқувчиларида миллий ифтихор туйғусини шакллантиришнинг маънавий-ахлоқий асослари	55
Н.Ш. Ходжаева, Д.И. Мамурова Билим олиш фаолияти самарадорлигини оширишда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш	57
М.О. Bobomurodova Muhammad Alining "Sarbadorlar" romanida Amir Temur obrazining ifodalanishi	59
S.I. Qahhorova, D.J. Jumaeva Malakaliy kadrlar tayyorlashning ustuvor vazifalari	63
Б.Б. Акбаралиев, Қ.М. Отажонов Малакали дастурчилар тайёрлашда дастурий таъминотни тестлаш жараёнининг аҳамияти	64
М.К.Баходирханов, У.Х.Курбонова, У.Х.Содиқов, А.Ш.Мавлянов, А.А.Хонбабаев "Устоз-шогирд" тизим, юқори малакали, маънавиятга қарата тайёрлашнинг асосидир	66
Х.М.Илиев, Ғ.Х.Мавлянов, Ж.И.Усмонов, С.А.Тачилин Илмий самаралар ташкил қилиш малакали мутахассислар тайёрлашнинг асосий омилларини баҳолаш	68
M.Q. Xolmurodov, Z.M. Boboyeva Talebalarning ma'naviy- ma'rifiy shakllantirishda sharoitlarning asoslaridan foydalanish	69
K.Sh. Rustamova Malakali kadrlar tayyorlashning ustuvor vazifalari	70
Ф.Р.Маллаева, Ж.Рахмонов Кадрлар тайёрлашнинг ўзига хос хусусиятлари	73
D.S.Niyozov, M. Xadjayeva, N. Tosheva, T.S.Kanatbayeva O'zbekistonda baliqchilikni	77